

## Buyuk yo'lboshchi xotirasi

Xotira insonning jamiyatdagi o'rni va ezgu xizmatlariga munosabat demakdir. Mangulikka muhrlangishning mezoni ham shu aslida.

"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakultetining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari O.Ro'zibaev, dekan muovini F.Bekchanov hamda faol talaba-yoshlari joriy yilning 31 yanvar kuni mazkur memorial majmuaga tashrif buyurdilar.

Talabalar "Islom Karimov" nomidagi ilmiy-ma'rifiy memorial majmuada Birinchi Prezidentimiz sharafiga qad ko'targan haykal poyiga gul qo'yishib ta'zim bajo keltirishdi.



Birinchi Prezident Islom Karimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan uyushtirilgan mazkur tashrif talabalar qalbida umrbod saqlanib qolishi tayin.

**Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash fakulteti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan  
o'rinbosari O.Ro'zibaev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**